




TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR



1. Sahifa saytga qanday kiritiladi?
2. Mediakontent nima?
3. Sayt sahifalarini o'zgartirish mumkinmi?
4. Menyu nima va u saytning qaysi qismlarida uchrashi mumkin?
5. Menyu elementlari nima maqsadda ishlatiladi?

19-dars. AMALIY ISH.

WORDPRESSDA WEB-SAYT TARKIBI BILAN ISHLASH

AMALIY TOPSHIRIQ



1. Saytning maqsadi, vazifalari, sahifa nomlari hamda sahifada taqdim etilishi lozim bo'lgan kontent turlarini shakllantiring.
2. Sayt uchun sahifalar kiriting.
3. Sayt sahifalarini turli kontentlar bilan to'ldiring.
4. Web-sayt uchun menyular yarating, ular tuzilmasini shakllantiring. Sayt mavzusidan kelib chiqqan holda sahifalar yarating va ularga nom bering.
5. Menyularning web-saytdagi joylashuvini belgilang.

QIZIQARLI FAKT

**World Wide Web yaratuvchisi Tim Berners Li**

Tim Berners Li (Timothy John «Tim» Berners-Lee) 1955-yil 8-iyunda Londonda tugʻilgan. Uning ota-onasi Konvey Berners Li va Meri Li Vuds matematik olimlar boʻlib, dastlabki kompyuterlardan biri – «Manchester Mark I»ni yaratish ustida izlanishlar olib borishgan.



Tim 12 yoshida Vendsvord shahridagi xususiy maktabga oʻqishga kiradi. Maktabni tugatgach, Oksforddagi kollejga hujjat topshiradi. Kunlardan birida kollejda oʻqib yurgan Tim monitor oʻrniga oddiy televizor, klaviatura oʻrniga esa buzilgan kalkulyatordan foydalanib, M6800 protsessori ishlash prinsipiga asoslangan uy kompyuterini yigʻadi.

1976-yilda Berners Li Oksford universitetida fizika mutaxassisligi boʻyicha oʻqishni tamomlaydi va mehnat faoliyatini Plessey Telecommunications Ltd korxonasida boshlaydi. Keyinchalik u CERN kompaniyasida tizim arxitektori lavozimida ishlaydi va ilmiy faoliyatida foydalanish maqsadida maʼlumotlar yigʻish uchun kengaytirilgan tizim ishlab chiqadi. 1981-yildan 1984-yilga qadar u Image Computer Systems Ltd kompanisida faoliyat yuritadi.

1984-yilda Tim CERN kompaniyasiga qaytadi va «FASTBUS» tizimi ustida ish olib boradi. Faoliyatining bu bosqichida maʼlumotlarni qidirish, koʻp funksional platformalararo tizimlar yaratish ustida ish olib boradi. Yangi dasturning asosiy vazifasi gipermurojaatlar orqali aloqa oʻrnata oladigan gipermatnli hujjatlar bilan ishlashdan iborat edi. Natija maʼlumotni qidirish, uni tizimga solish va saqlashni sezilarli darajada osonlashtirdi. Dastlab loyiha CERN kompaniyasi ichki tarmogʻida tadqiqot natijalarini saqlovchi maʼlumotlar ombori yoki zamonaviy kutubxona sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, ichki tarmoqda WWW ulangan har qanday kompyuterda saqlangan maʼlumotlarga kirish va ularni yuklab olish mumkin edi. Keyinchalik, 1989-yilda «World Wide Web» nomli katta loyiha maʼqullanadi va amalga oshiriladi. 1990-yilda CERN kompaniyasining xodimlari Tim Berners Li tomonidan NeXTStep muhitida yozilgan birinchi «web-server» va «web-brauzer»ga ega boʻlishdi. 1991-yilda Yevropa dunyoni zabt etgan WWW loyihasi orqali okeanni oshib oʻtib, Amerika qitʼasi internet tarmogʻiga ulanadi.

1991-yil 6-avgustda Tim Berners Li dunyodagi ilk web-sayt (info.cern.ch)ni yaratdi. Saytda WWW nima ekanligi, web-serverni qanday oʻrnatish, brauzerni qanday olish va hokazolar haqida yozilgan. Ushbu sayt dunyodagi birinchi Internet katalog edi, keyinchalik Tim Berners Li u yerdagi boshqa saytlarga havolalar roʻyxatini ham eʼlon qildi.



IV BOB.

LMS – TA'LIMNI BOSHQARUV TIZIMLARI

O'QUV MAQSADI

Bu bobda:

- LMS haqida tushunchaga ega bo'lasiz va;
- LMSning ishlash prinsipi;
- LMSning afzallik va kamchiliklari;
- LMSning turlari;
- LMS platformalari haqida bilib olasiz.

KO'NIKMA

Bob yakunida Siz:

- LMS platformasida ro'yxatdan o'tish;
- LMS platformasida kursni tanlash;
- LMS platformasida kurs materiallarini o'qish;
- LMS platformasi kurs materiallarini ko'chirib olish;
- LMS platformasida online va offline topshiriqlarni bajarish;
- LMS platformasida kurs foydalanuvchilari va kurs yaratuvchisi bilan onlayn muloqot olib borish ko'nikmalariga ega bo'lasiz.

VOSITALAR

- Moodle;
- Google Classroom